



MILLIY IQTISODIYOTNI SANOATLASHTIRISHDA INVESTITSION MUNOSABATLARNING TA'SIRI

PhD, dots. **Samatov Azizbek**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

ORCID: 0009-0008-1391-0720

aziz_samatov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalari investitsion salohiyatini oshirish masalalarida hamda sanoat korxonalari ishlab chiqarishni takomillashtirish maqsadida, korxonaning va uning tarkibiy tuzilmalarining o'zgarishi, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalar ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta'mirlash masalalari ilmiy tahlil etilgan. Shu bilan birga maqolada "O'zbekiston-2030" strategiyaasida sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi oshishi, avtomobil ishlab chiqarish sanoati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, avtotransport, optik mahsulotlar, elektr uskuna, samaradorlik, tarkibiy o'zgarishlar, sanoat, buyumlar, kompyuter, texnologiya, modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish, metal, korxona, kanalizatsiya, chiqindi, drayver, soha.

ВЛИЯНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ИНДУСТРИАЛИЗАЦИЮ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА

PhD, доц. **Саматов Азизбек**

Ташкентский институт менеджмента и экономики

Аннотация. В настоящей статье рассматриваются вопросы повышения инвестиционного потенциала промышленных предприятий и в целях совершенствования производства промышленных предприятий, изменения структуры предприятия и его структур, производства готовых металлических изделий, компьютеров, электронной и оптической продукции, электрооборудования, машин и оборудования, не включенных в другие категории, автотранспортных средств, прицепов и полуприцепов, другого транспортного оборудования, кроме машин и оборудования, научно проанализированы вопросы выпуска и ремонта машин и оборудования. Вместе в статье анализируется стратегия "Узбекистан-2030" по развитию "драйверских" отраслей промышленности и полной реализации промышленного потенциала регионов, увеличению доли производства продуктов питания, напитков и табачной продукции в структуре обрабатывающей промышленности, автомобилестроению.

Ключевые слова: стратегия, автомобили, оптические продукты, электрическое оборудование, эффективность, структурные изменения, промышленность, товары, компьютеры, технологии, модернизация, инновационное развитие, металл, предприятие, канализация, отходы, драйвер, отрасль.

INFLUENCE OF INVESTITURE RELATIONS IN THE INDUSTRIALIZATION OF THE NATIONAL ECONOMY

PhD, assoc. prof. **Samatov Azizbek**

Tashkent Institute of Management and Economics

Abstract. *In addition to machinery and equipment, finished metal products, computers, electronic and optical products, electrical equipment, machinery and equipment not included in other categories, vehicles, trailers and semi-trailers, production of other transport equipment and repair of machinery and equipment are scientifically analyzed. Moreover, the article analyzes the development of the “driver” areas of the industry in the strategy of Uzbekistan-2030 and the full employment of the industrial potential of the regions, increasing share of the production of food, beverages and tobacco products in the industrial structure of the production industry and the automotive industry.*

Keywords: *strategy, vehicle, optical products, electrical equipment, efficiency, structural changes, industry, parts, computer, technology, modernization, innovation development, metal, enterprise, sewage, waste, drive, sector.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida¹ (2023) berilgan “28-maqсад: Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish”ga qaratilgan talablaridan kelib chiqib, eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish. Mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish. Tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish. Xususiyl sektorning eksportdagi ulushini 60% foizga yetkazish masalalari belgilab berildi (Farmon, 2022).

Shuningdek, “O‘zbekiston-2030 strategiyasida”² sanoatning “drayver” sohaslarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish; sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish; elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnika ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga 1,5 milliard dollar investisiya jalb qilish; yangi turdagi mahsulotlar o‘zlashtirish va mahalliyashtirish darajasini o‘rtacha 65 foizga yetkazish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda elektrotexnika korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashtirishning shakllanishi va investision munosabatlarning yanada rivojlanishi natijasida ichki va tashqi bozorlarini sifatli hamda xaridorgir mahsulotlar bilan ta‘minlash bo‘yicha ulkan imkoniyatlarga ega ekanligidan kelib chiqqan holda, 2017 yilda boshlangan yangi iqtisodiy siyosat aholini mahalliy qayta ishlangan mahsulotlar bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan qator chora-tadbirlar hamda hukumat qarorlari qabul qilindi. Iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni qayta ishlash uchun yangi turdagi sanoat va qayta ishlash korxonalarini barpo etish hamda mavjudlarini modernizatsiyalash, ularni innovasion texnologiyalar asosida qayta jihozlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida, ko‘p yillar davomida yangi gaz konlariga investisiya kiritilmagani, elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilinmaganligi, oqibatda tizimda aniq hisob-kitob yo‘qligi,

¹ Lex.uz

² harakatlar strategiyasi 2022-2026.

ist'molchilarga yetib borishida katta yo'qotishlar oddiy holga aylanib qolgan sanoatni qayta jixozlash zarurligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, 2025 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, Respublikada 59,0 mingta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush – 11,9 mingtasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,2 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 8,5 mingtasi (14,4 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 6,1 mingtasi (10,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 4,7 mingtasi (8,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 4,1 mingtasi (6,9 %) mebel ishlab chiqarishga, 3,7 mingtasi (6,2 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga va 2,7 mingtasi (4,7 %) rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda va yildan-yilga ko'payib bormoqda³.

Iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishi uchun energetika sohasiga 25-30 milliard dollar investisiya kerak. Bunga faqatgina xususiy sektorni investisiyalarini jalb qilish orqali erishish mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijlik olimlardan Arturo Bris (2021), Brisley Neil, Arturo Bris, and Christos Cabolis (2011), Yong He, Cui Tang, Danlei Zhang, Nuo Liao (2023), Samuyel Cooper, Stephen Allen, Ahmed Gailani, Jonathan Norman, Anne Owyen, John Barrett, Peter Taylor (2023), Phi-Hung Nguyena, Thi-Ly Nguyenb, Chia-Nan Wangc, Minh-Duc Vua, Lan-Anh Thi Nguyena, Hong-Anh Phama, Mai-Anh Thi Phama, Hong-Quan Lea (2023), Wonsub Eum, Jeong-Dong Leye (2022) lar o'z ilmiy ishlarida Sanoatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirishga oid muammolarni yoritishda o'z ilmiy ishlari bilan katta hissa qo'shgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlari global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish va samarali ishlab chiqarish usullarini yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning yondashuvlari va tahlillari har bir sanoat sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

O'zbekistonlik olimlardan sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish xususiyatlarini Xotamov (2023), Xududlarda sanoat iglab chiqarishni o'ziga xos xususiyatlarini Olimov (2023), Kimyo sanoati korxonalarida innovasion-investision faoliyatni takomillashtirishning mexanizmlarini Dehkanova (2023) o'rganganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, tarixiylik, ciyosiy, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari, respublika yangi iqtisodiy siyosatda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar, Milliy iqtisodiyotni sanoatlashtirishni, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash bo'yicha iqtisodiy tajribalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlar asosida yoritilgan.

Tahlillar va natijalar muhokamasi.

Mamlakat sanoat tarmoqlarida investision faoliyatni faollashtirish mexanizmlarini tahlil qilish, ularda mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biridir. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida investision jarayonlarga nisbatan moliyaviy-iqtisodiy mexanizmini tahlil qilishda, hududlarning investision faoliyati samaradorligini oshirish maqsadlarini aniqlab olish zarur bo'ladi (1-rasm).

Investisiya kiritish uchun eng samarali sanoat korxonalarini joylarni izlash investision institutlarning hamisha bosh maqsadi bo'lib kelgan. Sanoat korxonalarining investision jozibadorligining oshishi oxirgi yillarda tendensiyaga aylanayotganligini e'tirof etish kerak.

³ O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi.



1-rasm. Sanoat korxonalarining investitsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yoqorida keltirilgan rasmda ma'lumotlaridan ko'rinadiki, sanoat korxonarida investitsiyalarning multiplikator samarasini oshirish mexanizmi ko'rsatilgan, unda ishlab chiqarish resurslari narxlarini muvofiqlashtirish, davlatning monetar siyosati, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, kafolat mexanizmini yaratish (garov ob'ektlari tarkibi va h.k.), davlat-xususiy sherikchilikni rivojlanganligi, risklarni sug'urtalanish darajasi va investitsion jarayonlarni prognozlashtirish muhim hisoblanadi.



2-rasm. Investitsiyalarning multiplikator mexanizmining iqtisodiy tuzilishi

Iqtisodiyotda investitsiya salohiyati, investitsion faoliyatni samaradorligini oshirish orqali mamlakatning barcha iqtisodiyot tarmoqlarida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat darajasida investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi maxsus davlat tashkiloti tuzilib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'rtasida ularning imkoniyati, tutgan o'rni, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda investitsiyalarni jalb etishda mutanosiblikni ta'minlash mazkur tashkilotning muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shuningdek, sanoat korxonarida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qisqa va uzoq davrga mo'ljallangan loyihalar ishlab chiqish, ularni moslashtirishning samarali tizimini yaratish, mamlakat ichidagi xususiy va

xorijiy investorlarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha investitsion loyihalar, dasturlarni moliyalashtirishga jalb etishi va amortizatsiya siyosatini amalga oshirishi mumkin.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tahlil etadigan bo'lsak 2025 yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan 488,5 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (79 578,8 ming so'm), Toshkent shahrida (29 108,0 ming so'm), Toshkent viloyatida (23 104,7 ming so'm), Andijon viloyatida (13 926,4 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (12 957,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2025 yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 415,6 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (85,1 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 36,7 trln so'm (7,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 33,6 trln so'm (6,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 2,7 trln so'm (0,5 %)ni tashkil etdi. Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Jizzax viloyatida 109,9 %, Navoiy viloyatida 107,5 %, Xorazm viloyatida 107,3 % qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natijaekanligini ko'rsatmoqda.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha 2025 yilning yanvar-iyun oylarida respublikada 575,6 ming tonna avtomobil benzini (2024 yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 14,8 % ga kamaygan), 327,8 ming tonna ip kalava (1,3 % ga ko'paygan), 539,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (17,5 % ga ko'paygan), 557,5 ming tonna dizel yoqilg'isi (10,4 % ga ko'paygan), 3 074,7 ming tonna ko'mir (16,5 % ga ko'paygan), 323,8 ming tonna neft (11,2 % ga kamaygan), 21 785,8 mln kub metr (3,1 % ga kamaygan) tabiiy gaz hamda 9 158,2 ming tonna portlandsement (18,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,2 % (2024 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %), to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 16,7 % (2024 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %), mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunolari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatishning ulushi – 18,5 % (2024 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %) hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,0 % (2024 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,3 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2024 yilning yanvar-iyun oylarida 1,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 19,7 % (23,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 38,9 % (38,4 %), quyi texnologiyali 40,3 % (37,2 %)ni tashkil etgan.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025 yilning yanvar-iyun oylarida 73 102 dona "Cobalt" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga oshdi) 4 131 dona "Chery" (0,7 % ga kamaydi), 11 763 dona "KIA" (26,9 % ga oshdi), 45 992 dona "Damas" (18,1 % ga oshdi), 23 351 dona maxsus yengil avtomobillar (82,4 % ga oshdi), shuningdek, 22 847 dona "Tracker" (6,3 % ga oshdi), 17 249 dona "Onix" (1,0 % ga kamaydi), 3 538 dona "Haval" (6,5 martaga oshdi) va 7 000 dona "BYD" avtomobillari ishlab chiqarildi.

Fikrimizcha 2025 yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 106,6 %ni, yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 89,3 %ni tashkil etdi.

Tahlilarimiz ko'rsatishicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 30,0 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 5,9 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 2,6 % ga ko'payish kuzatildi.

Xulosa va takliflar.

Sanoat korxonalari investitsion salohiyatini oshirish masalalarida hamda sanoat korxonalari ishlab chiqarishni takomillashtirish maqsadida, korxonaning va uning tarkibiy tuzilmalarining o'zgarishida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga keldik:

- sanoat korxonalari investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish va ularning investitsion salohiyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish lozim: investitsiyalashning manbalarini aniqlash hamda ularni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar va imtiyozlar yaratish; samarali investitsiyalashni ta'minlovchi bozor sub'yektlarini shakllaninishini qo'llab-quvvatlash; real investitsiya talabiga mos resurslarni jalb etishni ta'minlovchi makroiqtisodiy muhitni shakllantirish; davlat tomonidan investitsiya jarayoni sub'yektlarini rag'batlantirish.

- investitsiyalarni mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarishga, shuningdek mashina va uskunalarini ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni tashkil etishga yunaltirish maqsadga muvofiq.

- sanoat korxonalari ishlab chiqarishni takomillashtirish maqsadida, korxonaning va uning tarkibiy tuzilmalarining (sex, fabrika va h.k.) o'ziga xosligini inobatga olgan holda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi oshishi, avtomobil ishlab chiqarish sanoatida yangi davr boshlanganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Brisley Neil, Arturo Bris, and Christos Cabolis (2011), "A theory of optimal expropriation, mergers and industry competition", *JOURNAL OF BANKING & FINANCE* (<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0378426610003432>) 35-4, pp. 955-965.

Dehkanova N.Sh. (2023) *Kimyo sanoati korxonalarida innovatsion-investitsion faoliyatni takomillashtirishning mexanizmlari*. LAP Publishing nashriyoti. -170 bet.

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni*.

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston - 2030» Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni*.

Farmoni, Arturo Bris (2021) *The Right Place: How National Competitiveness Makes or Breaks Companies* 5 August, Pages 1 478 (<https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.85116972528&origin=inward&txGid=1ef28ff95e2f654880afbbec76f5797e>).

Olimov M.K. (2023) *Xududlarda sanoat iglab chiqarishni o'ziga xos xususiyatlari*. Ilim-fan va innovatsiya nashriyoti. -184 bet.

Phi-Hung Nguyena, Thi-Ly Nguyenb, Chia-Nan Wangc, Minh-Duc Vua, Lan-Anh Thi Nguyena, Hong-Anh Phama, Mai-Anh Thi Phama, Hong-Quan Lea (2023) "Linking investment decisions-based on firm performance and open innovation practices in Vietnam's wire and cable market using data envelopment analysis models" Available online 28 June 2199-8531/© 2023

The Author(s). Published by Elsevier Ltd on behalf of Prof JinHyo Joseph Yun.
<https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2023.100080>.

Samuel J.G. Cooper, Stephen R. Allen, Ahmed Gailani, Jonathan B. Norman, Anne Owen, John Barrett, Peter Taylor (2023) "Meeting the costs of decarbonising industry – The potential effects on prices and competitiveness (a case study of the UK)" Available online 27 November 2023 0301-4215/© The Authors. Published by Elsevier Ltd.

Wonsub Eum, Jeong-Dong Lee (2022) The co-evolution of production and technological capabilities during industrial development Publication: Structural Change and Economic Dynamics Publisher: Elsevier Date: December / <https://doi.org/10.1016/j.strueco.2022.07.001>.

Xotamov I. (2023) Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish xususiyatlari. **OOO "Lesson Press"**, nashriyoti. 163-bet.

Yong He, Cui Tang, Danlei Zhang, Nuo Liao (2023) "Assessing the effects of the influencing factors on industrial green competitiveness fusing fuzzy C-means, rough set and fuzzy artificial neural network methods" Publication: Ecological Indicators Publisher: Elsevier Date: March.

Баурина С.Б., Назарова Е.В. (2023) «Технологические новшества промышленной среды». Азимут научных исследований: экономика и управление, vol. 12, no. 1 (42), pp. 77-81.

Герасимов В.И., Коданева С.И. (2023) «Обзор научно-технологического и инновационного сотрудничества стран брикс: тенденции, перспективы и вызовы». Управление наукой: теория и практика, vol. 5, no. 1, pp. 204-229.

Закондырин А.Е. (2023) "Методологические подходы и организационно-экономические инструменты экологизации промышленных производств на принципах реализации наилучших доступных технологий" диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук/ Специальность: 5.2.3. - «Региональная и отраслевая экономика». Москва, – 261с.

Мокроносов А.Г., Маврина И.Н. (2014) Конкуренция и конкурентоспособность: учебное пособие / Екатеринбург: Изд-во Урал ун-та, – 194, с.

Шишацкий Н.Г. (2022) «Новая индустриализация и тенденции модернизации промышленного комплекса региона (на примере Красноярского края)». Региональная экономика и управление: электронный научный журнал, no. 3 (71), pp. 18. doi:10.24412/1999-2645-2022-371-18.